

**“OSHIQNOMA” TURKUMIGA KIRUVCHI “HURLIQO VA HAMRO”  
DOSTONIDAGI QIRQ, UCH VA IKKI SONLARINING LINGVOMADANIY  
XUSUSIYATLARI**

**Charosxon Ismoilova,**

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

*Filologiya va san'at fakulteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi*

*241-guruh 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm xalq dostonlaridagi son so'z turkumining o'ziga xos bo'lgan lingvokulturologik xususiyatlari mifologik hamda diniy tasavvurlardan kelib chiqqan holda yoritilgan.

**Kalit so'z:** Doston, lingvokulturologiya, ikki, uch, qirq sonlari, mifologiya, diniy tasavvuf.

**Abstract:** This article examines the unique linguistic and cultural features of the number word category in Khorezm folk epics, based on mythological and religious concepts.

**Keywords:** Epic, linguistic and cultural studies, two, three, forty numbers, mythology, religious mysticism.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются уникальные лингвистические и культурные особенности категории числительных в хорезмских народных эпосах на основе мифологических и религиозных концепций.

**Ключевые слова:** эпос, лингвистические и культурологические исследования, два, три, сорок чисел, мифология, религиозный мистицизм.

**Kirish.** Bilamizki, xalq og'zaki ijodida har bir unsur o'zgacha usulda, o'zgacha ma'noda qo'llanilin ularning barchasi butun bir yaxlitlikni o'zida ifoda etadi. Misolda tarzda doston janrini oladigan bo'lsak undagi fraza, qofiyadosh so'zlar hamda sonlar asarga o'zgacha bir ko'rk bag'ishlab uni boshqalaridan ajratib turadi. Biz bular sirasidan sonlarni olib qaraydigan bo'lsak, ularning tub mohiyatida biz bilgan va bilmagan ma'nolar "sirlilik" yashiringanining guvohi bo'lamiz. Bu xususda M. Jo'rayevning fikrini keltirsak "Raqamlar ortida yashiringan ma'nolarni ochish, ularni to'g'ri talqin qilish uchun ham muayyan bilim zahirasiga ega bo'lish lozim", – deydi u. [3.112]

Filologiya fanlari doktori M. Jo'rayevning fikriga ko'ra, folklorda, marosim va udumlarda qo'llaniladigan raqamlar ikkiga ajralgan:

1. Sehrli raqamlar.

2. An'anaviy raqamlar. [3.13] Biz ushbu tahlilimizda "Hurliqo va Hamro" dostonida qo'llangan raqamlarda har ikki xususiyatni ham ko'rishimiz mumkin.

**Metodologiya.** Dostonlarni tahlil qilib shuni ko'rish mumkinki, unda qo'llangan raqamlardan ba'zilar o'zida sirlilikni ifodalasa, ba'zilar an'anaviy ya'ni o'z ma'nosida (sanash ma'nosida) ishlatilganini ko'rishimiz mumkin. Tildagi bunday hodisalarni esa lingvokulturologiya tadqiq etadi. Lingvokulturologiya – til va madaniyat aloqadorligini tadqiq etuvchi soha bo'lib "Til madaniyat bilan bog'langan, u madaniyatga yetib boradi, unda rivojlanadi va uni ifodalaydi". [8.120] deya aytib o'tilgan. Lingvokulturologiya etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan chambarchas aloqadadir. Hatto V.N. Teliyaga

ko'ra, lingvokulturologiya etnolingvistikaning tarkibiy qismidir. Biroq lingvokulturologiya ham, etnolingvistika ham o'z mohiyatiga ko'ra alohida, fanlardir. Bugungi lingvokulturologik tadqiqot davomida biz dostonidagi sonlarning faqat raqamlash funksiyasining o'rganmasdan, balki raqamlashdan tashqari urf-odatlarimizda akslanishi ya'ni etnografizmlar tizimidagi funksiyalari haqida izlanishlar olib bordik, o'rgandik, lingvokulturologik jihatdan tadqiq etdik va fikrlarimizni misollar, manbalar orqali dalilladik. Tadqiqot davomida sonlarning urf-odat, marosim, maqol, folklor namunasi, xalqning mentaliteti, milliy xarakteri tildagi sonlar vositasida voqelanishi, yuzaga chiqishi o'rganildi.

**Muhokama va natijalar.** *Alqissa kunlardin bir kun Xisrav shoh o'ziga andesha qildikim, man kim uchun podsholig' qilurman, o'zim o'lsam taxtinga kim o'ltirur deb. Ammo podshoning hech farzandi yo'q erdi. Aydikim, o'zimga o'zim zulm qildim, deb taxtdin o'zini tashlab, qirq kecha-kunduz fuqarolarga ko'rinish bermay, ichkariga kirib ketdi.*[7.102]. Ushbu namunada qo'llangan qirq sonining tilimizda ifodalaydigan tub mohiyatlari shunchalik ko'pki, ularning har biri ota-bobolarimizning ma'lum bir e'tiqodini o'zida kas ettiradi. Ulardan bu yerda kelgan qirq kecha-kunduz birikmasini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilsak ushbu raqam Sharq xalqlarining marosimlari va urf-odat-u qadriyatlarida o'ziga xos an'ana sifatida qo'llangan. Xususan, chaqaloqning tug'ilishini oladigan bo'lsak, kelin tushirish yoki dafn marosimlarida bu raqamga alohida ahamiyat berishganlar. Ya'ni yangi farzand ko'rgan ayol qirq kun chilla saqlagan. "Chilla" so'zi o'zi fors tilidan kelib chiqqan bo'lib, qirq kunlik muddatni anglatgan. Go'yo chillalik davrida ona-bolani yovuz kuchlar ta'qib qilib yurarmish, shuning uchun ham bu yovuzlikning oldini olish uchun ona hech qayerga chiqmay, farzandini begonalardan himoya qilgan.

*Andin so'ng podsho aydikim, avliyolarga borib, madadi istinoat tilayin deb, qirq avliyoni tunadi, nogoh xo'jai Xizr alayhissalom uhradilar, aydilar, bo'tam, yo'l bo'lsin dedilar.*[7.103] Turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodida, qirq soni ham boshqa sonlar singari qutlug' va muqaddas raqam hisoblanadi. Jumladan, "Ashik", ya'ni baxshilar tomonidan aytilgan qo'shiqlarda esa, hazrati Ali rahbarlik qilgan qirq kishini "qirqlar" deyilgan.

*Mani-sani yor o'g'ratdi bu darda*

*Siringni bildirma slo nomarda*

*Bir guzar makonim cho'li mug'orda*

*Qirq kunlik yo'ldir maning makonim*[7.113] Qirq soni aniq bir sonni, miqdorni anglatmaydi. Ertak va dostonlardagi "qirq kunlik muddat" va "qirq kunlik masofa" tushunchalari o'z ma'nosida emas, balki o'sha masofa va vaqtning cheksizligini bildirish uchun ham qo'llanadi. Quyida berilgan misollar ham aynan bir miqdorni emas, balki ko'plikni, ya'ni cheksizlikni ifoda etib kelgan.

*Mani so'rsang elim Misr yurtidin*

*Saning uchun sargardona kelurman  
Qirq kun bo'ldi jabru falak dardidin  
Saning uchun sargardona kelurman*[7.117]

*Qirq ming ot berayin tillo egarli,  
Qirq ming qul berayin zarrin kamarli,  
Qirq ming kaniz beray semurg' parli  
Qozim mango nikoh tushar deyago'r.*[7.123]

*Ibrohimdek o'ta kirsam,  
Ismoildek qurbon o'lsam  
Dovuddek 40 o'g'il bersam  
Toparmanmi, bolam sani.* [7.128]

*Alqissa andin so'ng Hamro og'alarining orqasidan yetdi, ko'rdiki, og'alari bir chashmaning bo'yida o'tiribdir. Hamro og'alarining qoshig'a o'tirdi. Auydilar: sen ham keldingmi, ori keldim, dedi. Ammo yo'l bu yerda uch ayrilib erdi. Hamro aydi: og'alar maslahat qiling dedi. Uch chashmaning boshida bir tosh bor erdi, ul toshda xat bitiklikdurkim, har kishi o'ng yo'lg'a borsa sihat keltirgay, agar o'rta yo'lg'a borsa kelgay yo kelmagay, agar chap yo'lg'a borsa aslo kelmagay, debdur.*[7.111] Har bir xalq turlicha fikrlagani singari har bir sonni ham turlicha talqin qilishadi va shunday tushunishadi. Masalan, uch soni xitoy falsafasida uch asosiy qudrat – osmon, yer va inson, uch yorug'lik manbai – quyosh, oy, yulduz deya qaralsa, Xristianlarda tangri – ota, tangri – o'g'il, tangri- ruh tushunchasini aks ettirgan. Ushbu namunada qo'llangan uch raqami Sharq xalqlari ijodida uch yo'lning g'ayritabiiy xususiyatiga sig'inish an'anasining izlari saqlanib qolgan. Bu uch yo'l motivi turkiy xalqlarning mifologik tasavvurlariga borib taqaladi. Ota-bobolarimiz mifologik e'tiqodlariga ko'ra uch yo'l- uch olamga olib boradi, ya'ni borsa kelar –zaminga, borsa xatar – ko'kka, borsa kelmas –yer osti dunyosiga boradigan yo'l nomidir. Demak, aslida uch yo'l qadimgi ajdodlarimizning uch olam haqidagi qarashlari asosida paydo bo'lgan.

*Alqissa bir-birlari birla ayshu ishrat qilib, bo'salar olib xushvaqt bo'ldilar. Andin so'ng Hurliqo aydikim, ey Hamro ayshu ishrat qilg'onimiz o'ngimizmi yo tushimizmi? Anda Hamro aytadiki, o'ngimiz Hurliqo uch marta aytdi tushimiz deb Hamro inonmadi.*[7.113] “Bir, ikki, uch – uchdan keyin puch” aytimi qadimgi sanoqning o'yin folklorida qo'llaniladigan sanama tekstga aylangan ko'rinishidir. Qadimgi odam biror narsani sanayotib uchdan keyin keladigan raqamni topolmay “ ko'p” so'zini qo'llagani kabi, bolalar ham o'yin folklorida uchdan keyingi raqamni bilolmay “puch”, deb qo'ya qolishgan. [2.122] Shuning uchun ham Misrliklarning Mixxat usulida yozilgan yodgorliklarida “ko'p” tushunchasi uchun uch chiziqli ieroglif – “III“ belgisi bilan

ifodalanar ekan. Hatto bugungi kunda ham yozuvda ma'lum notugalliklarni aks ettirish uchun tushirib qoldirilgan so'z yoki jumлага, o'quvchining o'zi xulosa chiqaradigan joyiga uch nuqta qo'yib ketamiz.

*Alqissa anda podsho zor-zor yig'lab ko'zi uyqug'a bordi, tushida xazrati Shohimardonni ko'rdi, Shohimardon podshog'a aydilar: "Ey podsho bugun saning uchun to'qson bir martaba vojibul vujudni dargohig'a bordim, ammo mening xotirimdin uch o'g'il, bir qiz berdi, ammo bersa ham, alarning jonini o'n to'rt yoshida olaman, dedi.*[7.104] Ko'rinib turganidek turk madaniyati bu son bilan bog'liq turli xil voqea va hodisalarga boy. Bular: Turk afsonasi va ertaklariga ko'ra inson jahondagi uch muhim mavjudotdan biridir. Turk mifologiyasiga ko'ra ilohlar uchta. [4.526] Bular: "Gok Tanri", ya'ni – Ko'k tangri, "Yer sular", ya'ni Yer suv va "Yagiz Yer", ya'ni Kulrang yer. O'g'uz dostoniga ko'ra, O'g'uz xon uch kun ona suti bilan oziqlanmagan va shundan keyin uning onasi uch kecha qilajak ishlari haqida tush ko'rishgan. O'g'uz xon ikki ayolidan uchta o'g'il farzand ko'rgan. Bular: Go'kxon (Gokhan), Tog'xon (Daghan) va Dengizxon( Dengizhan)lardir.[6.14]

*Alqissa podsho hakimlarning so'zini qabul qilib, xotinlari birla suhbat qildilar, ulug' zaifalaridin ikki o'g'il bo'lib, kichik zaifasidin bir o'g'il, bir qiz bo'ldi.*[7.107] Bu yerda qo'llangan ikki sonining tub mohiyatiga boqish uchun avvalo o'tmishdan beri saqlanayotgan qadriyatlardan misol keltirsak: xalqimiz har bir udumda juft-toqlik qoidasiga ahamiyat berishadi, xususan dasturxonga toq non qo'yilmaydi, aks holda biror ko'ngilsizlik bo'lishi mumkin deb hisoblashadi. Dafn marosimida esa buning tamoman teskari bo'ladi.

*Anda dev hoy-hoy odamzod deb aydi: seno tog'g'a urayinmi yo havog'a tashlayinmu deb havog'a olib chiqdi. Ersa hashtiruh deb ko'rdikim, Hamroni olib boradur, anda xashtituh deb boyakbor devning orqasidin havog'a chiqib. Amud urdi, ikki dev urushg'a mashg'ul bo'ldi.*[7.121] Ushbu joyda qo'llangan ikki soni ham yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak turkiy xalqlarning qadimgi bir udumlariga ko'ra qizlar sochlarini toq qilib o'rishgan, agar shunday qilishsa soch juft bo'lay deb tezroq o'sar emish deya ishonishgan. Yoki qadimgi insonlar tabiat hodisalarini ikki xil ko'z bilan ko'rishgan. Moddiy olam ularning ko'zicha yaxshi – yomon, hayot – o'lim, ezgulik va yovuzlik kabi tushunganlar. Bu ham ajdodlarimizning tabiatdagi barcha hodisalarning ikki tomoni mavjudligini anglab yetishi bu juftliklarning son jihatidan ikkitaligini tushunishga asos bo'lgan.

*Orim Xisrav bo'ldim g'arib,*

*Qoldim g'amingda sarg'ayib*

*Ikki jahonni axtarib,*

*Toparmanmi, bolam sani.*[7.129]

Ikki sonining ushbu bandda kelgan namunasini lingvomadaniy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, dunyo va oxirat xususidagi fikrlar uchun, asosan, ikki jahon, ikki olam

birikmalari qo'llaniladi. Ushbu yerda keltirilgan birikma ham aynan shu ma'noda. So'zimizning isboti sifatida diniy tasavvurlardan misol keltirsak. Islom ta'limotiga ko'ra bir qancha farishtalar mavjud bo'lib, ularning har biriga ma'lum bir vazifa yuklatilgan. Xususan, odam olamdan o'tgandan keyin yorug' dunyodagi ishlari haqida so'roq qiluvchi ezgulik farishtalari – Munkar va Nakir to'g'risidagi qarashlar mavjuddir.[6.64]

**Xulosa.** Xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan raqamlar bilan aloqador turli xil e'tiqodlar sirini to'g'ri talqin qilish muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ularni timsollashtirish an'anasining tarixiy ildizlarini va bu tasavvurlarning ilmiy mohiyatini bilmasdan turib, marosim va udumlarimizda amal qilinadigan ko'plab qadimiy an'analarning mag'zini chaqish qiyin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djumayeva S. "Yetti va to'qqiz raqamlarining ramziy mohiyati"  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10439263>.
2. Johongirova G'. "O'zbek bolalar folklori". Toshkent,1925.
3. Jo'rayev .M "Sexrli" raqamlar siri". Toshkent,1990.
4. Kushayriy "Risolayi Kushayriy". Istanbul,1991.
5. Muhammadaliyeva Sh. "RAMZ VA UNING LISONIY TALQINI"  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8320689>.
6. Sunnatov J. "Turk adabiyoti va folklorida raqamlar badiiy ramz sifatida" Toshkent,2013.
7. Xorazm dostonlari "Oshiqnoma" turkumi. Urganch-2006.
8. Xo'jamova M. "O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SON LEKSEMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI".

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934